



O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT LAYOQATLILIGINI BAHOLASH MEZONLARI

Xayitova Maftuna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0006-7884-1485

maftunarakhmonova@gmail.com

Annotatsiya. Biz ushbu maqolamizda O'zbekiston Respublikasida davlat ulushiga ega banklarning kredit portfelining tahlilini amalga oshirganmiz. Tijorat banklarining jismoniy shaxslarga nisbatan siyosati va yuridik shaxslarga qaratilgan kredit siyosati tahlil qilingan. Tijorat banklarida kredit risklari hamda kredit liniyalaridan samarali foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kredit, kredit risklari, tijorat banklari, portfel, raqamli bank.

КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ КРЕДИТОСПОСОБНОСТИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ УЗБЕКИСТАНА

Хайитова Мафтуна

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье проведен анализ кредитного портфеля государственных банков Республики Узбекистан. Проанализирована политика коммерческих банков в отношении физических лиц и кредитная политика в отношении юридических лиц. Разработаны предложения по эффективному использованию кредитных рисков и кредитных линий в коммерческих банках.

Ключевые слова: кредит, кредитные риски, коммерческие банки, портфель, цифровой банк.

CRITERIA FOR ASSESSING CREDITWORTHINESS IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN

Khayitova Maftuna

Tashkent State University of Economics

Abstract. In this article, we analyzed the credit portfolio of state-owned banks in the Republic of Uzbekistan. The policy of commercial banks towards individuals and the credit policy towards legal entities were analyzed. Proposals were developed on the effective use of credit risks and credit lines in commercial banks.

Keywords: credit, credit risks, commercial banks, portfolio, digital bank.

Kirish.

Bank kreditlash tizimini tashkil etish va takomillashtirish masalalari hozirgi bosqichda alohida ahamiyatga ega bo'lib, doimiy rivojlanish va takomillashtirishni talab etadi. Bank tizimi zamonaviy jamiyatda katta ahamiyat kasb etadi. Kredit munosabatlarida tijorat banklari moliyaviy barqarorligi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar iqtisodini rivojlanishini ta'minlash uchun kredit riskini minimallashtiruvchi turli islohotlar va qonunga o'zgartirishlar kiritilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 05.08.2022 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 916-2 "Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlariga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish haqida"gi qarori bank faoliyatini samaradorligi va hujjatlarning qulay va aniq bo'lishini ta'minlash maqsadida qabul qilindi.

Adabiyotlar sharhi.

Agar kreditni so'ndirish nazarda tutiladigan bo'lsa, kreditga layoqatlilikka nisbatan to'lovga layoqatlilik tushunchasi kengroqdir. Negaki, to'lovga layoqatlilik jismoniy va huquqiy shaxslarning barcha qarz va majburiyatlarini o'z vaqtida to'lay olish imkoniyatini ifodalaydi. Kreditga layoqatlilik to'lovga layoqatlilikdan farq qilib, ssuda bo'yicha qarzlarni o'z vaqtida to'lash imkoniyatini ko'rsatadi. Undan tashqari, kreditga layoqatlilik to'lovga layoqatlilikdan to'lash manbalari bilan ham farq qiladi. Jamiyat farovonligini oshirish, yoshlarni bandligini ta'minlash va axoli uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasini oshirishda ham bank kreditlarining ahamiyati ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, Moliya vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda Markaziy bankning Moliya vazirligi tomonidan tijorat banklariga ipoteka va ta'lim kreditlari uchun ajratiladigan resurs mablag'lari bo'yicha foiz stavkalarini 2022 yil yakuniga qadar, istisno tariqasida, amaldagi foiz stavkalarida (ipoteka krediti bo'yicha 13 foiz, ta'lim krediti bo'yicha 10 foiz) saqlab qolish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida o'z aksini topgan (Kapop, 2022).

Bunda, 10 foiz stavkada ajratilgan resurslar hisobidan ta'lim kreditlari tijorat banklari tomonidan kredit oluvchiga 14 % ajratiladi.

Kreditga layoqatlilik mavzusi xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Rossiyalik iqtisodchi olim Endoviskiy (2005) fikricha, kredit layoqatliligi "Berilgan majburiyatning shartnoma shartlariga ko'ra o'z vaqtida qaytarilishidir". Beloglazova (2017) ta'kidlashicha, "Kredit layoqatliligi bu qarzdorning moliyaviy-xo'jalik holatidir". Ularning fikricha, kredit qobiliyatini aniqlovchi omillar sifatida mijozning moliyaviy barqarorligi hamda uning istiqbolli kredit qaytarish qobiliyati hisoblanadi. Boshqa iqtisodchi olim Lavrushing (2012) fikriga ko'ra, "Kredit layoqatliligi mijozning moliyaviy barqarorligi, uning qoplash huquqi va kredit qobiliyati omillariga bog'liq bo'lib, (kredit) bitimini tuzishga bo'lgan qobiliyatidir". Tavasievning (2007) fikriga ko'ra, "Kreditga layoqatlilik – bu qarzdorning o'z vaqtida va to'liq kredit summasini (asosiy qarz va foizi) to'lashga qodirligi va tayyorligidir". Boshqa bir iqtisodchi olim Dayneko (2015) o'zining ishlarida "Kreditga layoqatlilik bu – qarz oluvchining bankka kreditlarni qaytarish qobiliyati va qudratini tushunishidir".

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham kredit layoqatliligi xususida turli qarashlari mavjud. Xususan, Abdullaeva (2017) fikricha "Qarz oluvchi nuqtayi nazaridan, kreditga layoqatlilik darajasi kredit shartnomasini tuzish imkoniyati, olingan kreditlarni o'z vaqtida qaytara olish qobiliyati bilan baholanadi. Bank nuqtayi nazaridan, korxonaga beriladigan kreditning hajmini to'g'ri aniqlay olish mas'uliyati inobatga olinadi". Pardaev (2001) esa to'lov qobiliyatini "uning kredit olish va o'z vaqtida olingan kreditni to'liq qaytarish qobiliyati tushuniladi" degan. Azizovga (2004) ko'ra esa, "Kreditga layoqatlilik – bu mijozning unga ajratilishi mumkin bo'lgan kreditni o'z vaqtida foizlari bilan qaytara olish qobiliyatidir". Alimardonov (2018) kreditga layoqatlilikni baholashni koeffitsientlar usulini tavsiya etgan. Koeffitsientlar usuli asosan korxonaning moliyaviy jihatlariga baho beradi. Bunda

“koeffitsientlar tugallangan davr ko’rsatkichlari asosida kreditga layoqatlilikini baholaydi, ammo kredit kelgusi davr uchun ajratiladi”.

Ushbu masala boshqa iqtisodchi olimlar tomonidan o’rganilgan bo’lib, ilmiy tadqiqotlarida mavzuning dolzarbligi, nazariy jihatlar, xorij tajribasi, amaldagi tartibi atroflicha yoritib berilgan bo’lsa-da, mavjud muammoning amaliy yechimi berilmagan. Ilmiy tadqiqot olib borish jarayonida ma’lum bo’ldiki, sohaga oid adabiyotlarda, ilmiy ishlarda hamda tegishli boshqa manbalarda kreditga layoqatlilik atamasi bo’yicha ko’plab fikrlar bildirilgan. Ularning aksariyati mazmun jihatdan bir-birlariga mos keladi, ba’zilari esa o’z farqli tomonlarini namoyon qiladi. Bu esa ushbu atamani hozirgi davrga qadar ilmiy jihatdan aniq va to’liq ochib berilmaganligini ko’rsatadi.

Fikrimizcha, tadqiqotda e’tibor qaratilishi zarur jihatlar quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz:

1. Aksar manbalarda kreditga layoqatlilik moliyaviy ko’rsatkichlar asosida baholangan, ushbu moliyaviy koeffitsientlar korxonani moliyaviy jihatdan to’liq tahlil qilish imkonini bermaydi.

2. Kreditga layoqatlilikni baholashda ko’p hollarda nomoliyaviy ko’rsatkichlarga e’tibor qaratilmagan.

Mazkur holat kreditga layoqatlilik atamasining mazmunini batafsil yoritib beruvchi ilmiy asoslangan ta’rifni shakllantirishni talab etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, kreditga layoqatlilik tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta’rifini shakllantirdik. Mijozning kredit layoqatliliigi bu – uning qarz majburiyatlari bo’yicha potensial imkoniyatlarini o’z vaqtida va to’liq baholashga imkon beradigan, rasmiy mezonlar ko’rinishida beriladigan, shuningdek, mijozni kreditlashda bankning kredit riski darajasini aniqlashga yordam beradigan ko’rsatkichlar yig’indisi bo’lib hisoblanadi.

O’z navbatida tijorat banklarida kredit samaradorligi yuzasidan savollar paydo bo’ladi. Ya’ni, iqtisodchi olim Qulliyevning (2023) fikricha, banklarning kreditlash samaradorligini baholash – bu kreditlar sifatini oshirish, yuqori daromad olinishini ta’minlash va kreditlashni takomillashtirish yo’nalishlarini aniqlash maqsadida kredit tizimini tizimli tahlil qilish jarayoni hisoblanadi - deydi.

Mijozning kreditga layoqatliliigi tahlili va baholash masalalari bir qator xorijlik iqtisodchilar, jumladan, Yendovskiy (2005), Ermakov (2014), Soto (2008), Balabanov (2014), Prosalova (2008), Gryaznova, Dolan, Glushenko (2015), Lavrushin (2012), Matuk, Panova, Sinkening ilmiy izlanishlarida o’z aksini topgan.

O’zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Abdullaev, Abdullayeva (2016), Jumaev, Xamidulin, Akramov, Pardayev (2001), Azizov (2004), Raximov, Xakimov, Maxmudov, G’ulomxo’jayevlarning ilmiy ishlarida mazkur masalaning alohida jihatlar o’z aksini topgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tijorat banklarida ajratilayotgan kredit mablag’larining maqsadlilik va qaytish tamoillari muximligi bilan birga uning ijtimoiy-iqtisodiy va bank daromadlariga berayotgan samarasi ham muhim jihat xisoblanadi. Bunda kredit loyihalarining kelgusi davrlardagi natijasini baxolash va uni tahlil qilish bugungi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Moliya-kredit institutlarini o’zgartirishning nazariy asoslari, metodologiyasi va amaliy jihatlarini har tomonlama yorituvchi tadqiqotlarning yo’qligi ham ushbu ilmiy ishni yozishning dolzarbligi va zarurligini belgilaydi. Shunday qilib, yangi tizimga o’tish sharoitida bankning nazariy jihatlarini yanada rivojlantirish zarurati va dunyodagi beqarorlikni hisobga olgan holda bankni kreditlarini boshqarish texnikasini takomillashtirish bo’yicha to’plangan tajribani tizimlashtirish, shuningdek bankni o’zgartirishga yagona kompleks yondashuvni shakllantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahon standartlariga ko’ra tijorat banklarining joriy va uzoq muddatli likvidlik darajalari 50 % bilan 120 % orasida tebranib turadi. (1-jadval). Rivojlangan mamlakatlarda faoliyat

ko'rsatayotgan Bank of America, Bank of China, Morgan Chase, Wells Fargo, HSBC Holdings plc, City Bank, Mitsubishi UFJ Bank, Sumimoto Bank va boshqa shu kabi tijorat banklarining ko'pchiligi uzoq muddatli likvidlik darajasiga ega bo'lgan moliyaviy muassasalar qatorida bo'lib, mamlakatimiz tijorat banklari likvidlik darajasining joriy va uzoq muddatli likvidlik darajalari o'rtasida ekanligi e'tiborga molik ko'rsatkich deb baxolay olamiz.

1-jadval.

Jahon standartlariga ko'ra tijorat banklarining likvidlik darajalariga qisqacha tavsif

No	Likvidlik darajasining nomlanishi	Qisqacha tavsif	Miqdor ko'rsatkichi
1	Tijorat banklarining lahzali likvidlik darajasi	Bir operatsion kun mobaynida tijorat bankining likvidlik darajasidagi yo'qotish riskini tartibga soladi	15 %ga teng yoki undan yuqori
2	Tijorat banklarining joriy likvidlik darajasi	30 kalendar kuni davomida tijorat bankining likvidlik darajasidagi yo'qotish riskini tartibga soladi	50 %ga teng yoki undan yuqori
3	Tijorat banklarining uzoq muddatli likvidlik darajasi	Mablag'larni uzoq muddatli aktivlarga joylashtirish natijasida tijorat bankining likvidlik darajasidagi yo'qotish riskini tartibga soladi	120 %ga teng yoki undan past

Manba: muallif ishlanmasi.

O'zbekistonda faoliyat yuratayotgan tijorat banklarining o'tgan 2024-yilning birinchi choragidagi faoliyatning samarali o'sishi ko'rsatkichi bo'yicha "Ipoteka Bank" eng sezilarli o'sishni ko'rsatdi. 2024-yil 1-mart holatiga Respublika bank tizimi aktivlari 2023-yil 1-mart holatiga nisbatan – 19,3 % o'sish, majburiyatlari esa 19% o'sish kuzatilgan. Kreditlari 327,2 trln. so'm (o'sish 16,8%) hamda depozitlari 148,4 trln. so'mni (o'sish 31,2%) tashkil etdi.

Jadval ma'lumotlariga nazar tashlasak, tahlil qilinayotgan davrda 2019-2022 yillarda ATB "Agrobank"ning ustav kapitali qariyb 5,0 martaga ko'paygan, biroq shu yillarda uning qo'shimcha kapitali va taqsimlanmagan foydasi deyarli o'zgarishsiz qolgan, zaxira kapitali 8,8 martaga kamaygan. Demak, bu holatga baho beradigan bo'lsak, bankning aksiyalari bahosi yuqori emas, shuningdek, ularning oldi-sotdisi juda zaif, bank zaxira kapitalini shakllantirish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirmagan. Buning sababi ATB "Agrobank"ning foydasi bunga imkoniyat bermaydi, chunki tahlil etilayotgan davrda taqsimlanmagan foydasi ham oshmagan. Bizning fikrimizcha, bankning kapitallashuv darajasida qator muammolar mavjud bo'lib, asosan uning manbalari qimmat mablag'lar hisobidan shakllantirilmoqda.

Ma'lumki, kapitalini shakllantirishda daromad muhim va arzon moliyaviy mablag'lar manbasi bo'lib hisoblanadi. Shu bois, tadqiqotni mamlakatimiz daromad va xarajatlari tahliliga qaratmoqchimiz. 3.3-jadvalda O'zbekiston ning 2022-2024 yillarda daromad va xarajatlari tarkibi va dinamikasi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, daromadlari tarkibida foizsiz daromadlarning ulushi yuqorilgicha qolmoqda. Masalan, 2021-yilda banklarning ushbu daromad manbasi jami daromadlarning 48 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 31 foizdan iborat bo'lgan. Bizning fikrimizcha, banklarning foizli daromadlari jami daromadlar tarkibida 80 foizdan kam bo'lmasligi maqsadga muvofiq, chunki bankning ushbu daromadlari bevosita ularning aholi va xo'jalik subyektlarini kreditlash, investitsion va shu kabi aktiv operatsiyalari, ya'ni bankning asosiy faoliyati hisobidan tashkil topadi, foizsiz daromadlarining manbasi esa asosan mijozlarning hisobvaraqlari bo'yicha debet aylanmalari hisobidan olinadigan daromadlaridan vujudga keladi, shu bois daromadning ushbu manbasini daromadlar tarkibidagi ulushini 15-20 foizgacha pasaytirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi daromadlilik ko'rsatkichlari, mlrd.so'm

	2021-y.		2022-y.		2023-y.		2024-y.	
	mlrd	%	mlrd	%	mlrd	%	mlrd	%
	so'm		so'm		so'm		so'm	
Foizli daromadlar	7 960	54	14 517	69	19 658	69	25 323	78
Foizli xarajatlar	4 623	43	8 355	55	14 523	51	16 264	57
Foizsiz daromadlar	6 917	46	6 564	31	8 562	30	9 525	33
Foizsiz xarajatlar	1 943	18	1 343	9	1 867	7	2 352	8
Operatsion xarajatlar	4 138	39	5 583	37	6 267	22	7 758	28
Jami daromadlar	14 877	100	21 081	100	28 652	100	32 568	100
Jami xarajatlar	10 704	100	15 281	100	22 225	100	28 654	100
Kredit va lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin zararlarni baholash	1 632	15	1 746	11	1 800	8	2 145	7
Boshqa aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash	279	3	196	1	355	2	455	2
Soliq to'langunga qadar sof foyda (zarar)	2 263	15	3 858	18	4 250	20	7 856	28
Foyda solig'ini to'lash xarajatlari	380	17	659	17	768	4	954	3
Foyda bo'yicha tuzatishlar	2	0	1	0	1	0	1	0
Sof foyda	1 881	13	3 200	15	1 805	9	3 256	12

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan mustaqil hisoblandi.

Xarajatlari tarkibini ko'radigan bo'lsak, xarajatlar tarkibida foizsiz xarajatlar salmoqli ulushni tashkil etmoqda. Masalan, 2021-yilda ushbu manba 59 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 46 foizga yoki 13 punktga kamaygan. Fikrimizcha, bu ulushni yanada pasaytirish maqsadga muvofiq, chunki jadval ma'lumotlariga e'tibor beradigan bo'lsak, ushbu xarajatlarning 37 foizi operatsion xarajatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda, buni yanada kamaytirish maqsadida ning raqamli xizmatlari va mijozlarga masofadan turib ko'rsatadigan xizmatlar turlari va sifatini oshirish lozim.

Xulosa va takliflar.

Tahlillarimiz natijasida xulosamiz tijorat banklarida kredit samaradorligini oshirish strategiyalarining sifati ularni amalga oshirishda faol ishtirok etadigan bank tizimi xodimlarining malakasi va kasbiy layoqatiga har tomonlama bog'liq. Shu bilan birga banklarning faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda faoliyatini tashkil etish hisoblanadi. Bundan tashqari banklarning kredit ajratmalariga qaratilgan bankning ichki siyosatini xam tahlilimizda farlab oldik. Davlat banklarning ko'pining asosiy funksional vazifalari bu bozorda raqobatga qaratilmagan davlat loyihalarini amalga oshiruvchi monopol banklar jamlanmasi sifatida bizda tasavvur uyg'otdi. Binobarin kredit takliflarida bank siyosati shuni ko'rsatmoqda. Boshqa davlat ulushiga ega bo'lmagan banklarda kredit samaraqdorligini oshirish bo'yicha imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bank boshqaruv siyosatini amalga oshirmoqdalar. Tahlillarimiz natijasida shuni taklif qilishimiz mumkinki, banklarni beqaror

global siyosiy jarayonda faoliyatining samarali tashkil etish va sof raqobatni shakllantirish maqsadiga banklarni transformatsiyalashuvi jarayonini tezlarshirish maqsadga muvofiq. Shu o'rinda, bank kreditlari bilan DXSh loyihalarida ishtirok etishini kuchaytirish samarali iqtisodiy faoliyat kasb etadi. DXSh munosabatlari ilm-fan sohasida, texnika, tibbiyot, madaniyat va boshqa sohalarda amalga oshirilishi milliy iqtisodiyot barqaror rivojlanishi uchun ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi bank va boshqa moliyaviy tizimlarni yanada shakllanishiga sabab bo'ladi.

Adabiyotlar /Jumepamypa/References:

- Abdullaeva Sh. (2016) "Bank ishi". Darslik. –T.:Moliya.-579 b.
- Abdullayeva Sh.Z. (n.d) Bank risklari va kreditlash. -T.: "Moliya", – 304 b.
- Alimardonov I.M. (2018) "Kichik biznes subyektlarini kreditlashning uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirish" Avtoref. diss. i.f.d. – T. 18 bet.
- Azizov U.O'. (2004) "Tijorat banklari tomonidan kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishni takomillashtirish masalalari" Avtoref. diss. ... i.f.n. – T.: 100-101 b.
- Balabanov A.I., Borovkova Vik. (2014) Banki i bankovskoe delo: uchebnik. 2-ye izd. –SPb.: Piter.-448s.
- Beloglazovoy G.N. (2017) Bankovskoe delo / M.: Finansy i statistika. 498 s.
- Dayneko Ya.V. (2015) Metody otsenki kreditosposobnosti organizatsii rossiyskimi bankami // Sovremennaya nauka: aktualnye problemy i puti ix resheniya. № 6 (19). S. 178-181.
- Farmon (2020) O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari milliy bazasi, 13.05.2020-y. 06/20/5992/0581-son.
- Glushenko V.V. (2015) Analiz protsedur otsenki kreditosposobnosti zaemshika kommercheskogo banka. Avtoref. diss. ... k.e.n. – M.: 17 s.
- Hidirov N. (2020) Specific features of financing investment activity of industrial enterprises //International Finance and Accounting.– №. 1. – S. 31.
- Jumaniyozov I. (2018) Impact of Development Finance Institutions on Economic Growth: Implications for Reconstruction and Development Fund of Uzbekistan-International Journal of Management Science and Business Ad 4. – №. 2. – S. 84-88.
- Kulliyev I.A. (2023) O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining chakana kreditlash amaliyoti samaradorligini baholashni takomillashtirish masalalari/ Xalqaro moliya va hisob elektron jurnal, #2.
- Lavrushin O.I. (2012) Bankovskoe delo. Uchebnik. M.: KNORUS, S.768.
- Lavrushin O.I. (n.d.) Bankovskie riski. - M.: "Knorus", - 232 c.
- Mishkin F.S. (2013) Ekonomicheskaya teoriya deneg, bankovskogo dela i finansovyx ryinkov. 7-ye izdanie. Per. s angl. – M.: OOO «I.D.Vilyams». - S. 497.
- Pardaev M.Q. (2001) Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy tahlilning nazariy va metodologik muammolari: i.f.d. dissertatsiyasi. – Samarqand. 228 b.
- Prosalova V.S. (2008) Problemy otsenki kreditosposobnosti klientov kommercheskix bankov. Monografiya. – Vladivostok: Izd-vo VGUES. – 17, 57 s.
- Rashidov O.Yu, Tojiev R. (2012) Markaziy bankning monetar siyosati. T.: TDIU nashriyoti.
- Rouz P.S. (n.d.) Bankovskiy menedjment. - M.: "Delo", - 268 c.
- Soto X.U. (2008) Dengi, bankovskiy kredit i ekonomicheskie sikly. Per. s angl. – M.: Sotsium. – 663 s.
- Tavasiev A.M. (2007) Bankovskoe delo / A.M. Tavasiev, V.A. Moskvina, N.D. Eriashvili. - M.: YuNITI-DANA, 2007. - 287 s.
- Tojiev R.R., Jumaev N.X. (2007) Markaziy bankning monetar siyosati. TDIU nashriyoti, 260b.
- Xayitova M. (2022) Banklarning transformatsiyalashuvida kredit samaradorligini oshirish - Science and innovation international scientific journal volume 1, issue 5 UIF: 8.2 | ISSN: 2181-3337.

Yefimova Ye. G. (2009) Dengi, kredit, banki: praktikum. M.: Izd-vo MGIU.

Yendovskiy D.A. (2005) Analiz i otsenka kreditosposobnosti zaemshika: ucheb.-prakt. posobie / D.A. Yendovskiy, I.V. Bocharova. M.: KNORUS.

Yermakov. S.L. (2014) Osnovy organizatsiy deyatel'nosti kommercheskogo banka. Uchebnik. –M.: KNORUS– 656s.

Қарор (2022) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 8.04.2022 йилдаги ПҚ-199-сон қарори “Марказлашган манбалар ҳисобидан ипотека ва таълим кредитлари учун ажратиладиган маблағлар бўйича фоиз ставкаларини белгилаш тўғрисида”.